

№ 2 (6)
2025



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSI

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL





**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilmiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 2(6)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

AMANULLA RIZAYEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHAMMAD TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, docent;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ARTIQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JANABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Sh.Abdirov 2-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel: 551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

QORAQALPOG'ISTON OPERA SAN'ATIDA MILLIY OBRAZLAR TALQINI

Kutekeeva R.A.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston opera san'atining shakllanishi va rivojlanish jarayonida milliy obrazlarning talqin etilishi ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilinadi. Opera janrida qoraqalpoq xalq dostonlari, tarixiy qahramonlari hamda turmush tarzidan olingan timsollar musiqiy va dramaturgik vositalar orqali ifodalanishi ko'rib chiqiladi. Bastakorlar ijodida xalq kuy va ohanglari asosida yaratilgan musiqiy til obrazlarning milliy ruhini ochib berishda asosiy vosita sifatida namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Shuningdek, sahna bezagi, liboslar, dekorativ san'at unsurlari milliy obrazlarni yanada boyitib, tomoshabinga yaqinlashtirishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari Qoraqalpog'iston opera san'atida milliylik va universallik uyg'unligini ochib berish bilan birga, yosh avlodni milliy merosga hurmat ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatini ham ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Opera san'ati, milliy obraz, xalq dostonlari, bastakorlik ijodi, musiqiy dramaturgiya, milliy meros, milliylik va universallik.

Аннотация: В данной статье научно-методически анализируется интерпретация национальных образов в процессе становления и развития оперного искусства Каракалпакстана. Рассматривается воплощение в оперном жанре мотивов каракалпакских народных дастанов, исторических героев, а также образов, взятых из быта народа, с использованием музыкальных и драматургических средств. Подчеркивается, что в творчестве композиторов музыкальный язык, созданный на основе народных мелодий и интонаций, является главным средством раскрытия национального духа образов. Кроме того, сценическое оформление, костюмы и элементы декоративного искусства обогащают национальные образы и делают их ближе зрителю. Результаты исследования показывают, что интерпретация национальных образов в оперном искусстве Каракалпакстана не только отражает гармонию национального и универсального, но и играет важную роль в воспитании молодого поколения в духе уважения к национальному наследию.

Ключевые слова: оперное искусство, национальный образ, народные дастаны, композиторское творчество, музыкальная драматургия, национальное наследие, национальное и универсальное.

Annotation: This article provides a scholarly and methodological analysis of the interpretation of national images in the formation and development of the operatic

art of Karakalpakstan. It examines how motifs of Karakalpak folk epics, historical heroes, and characters drawn from everyday life are embodied in the opera genre through musical and dramaturgical means. It is emphasized that in the works of composers, the musical language created on the basis of folk melodies and intonations serves as the primary means of revealing the national spirit of these images. In addition, stage design, costumes, and elements of decorative art enrich national characters and bring them closer to the audience. The findings of the study show that the interpretation of national images in the opera art of Karakalpakstan not only reflects the harmony of national and universal values but also plays an important role in fostering young generations with a spirit of respect for national heritage.

Keywords: opera art, national image, folk epics, composers' creativity, musical dramaturgy, national heritage, national and universal values.

Kirish. Qoraqalpog'iston opera san'ati – milliy musiqa madaniyatining eng yuksak janrlaridan biri sifatida xalqning ma'naviy olami, tarixiy xotirasi va milliy o'zligining yorqin ifodachisi bo'lib xizmat qiladi. Bu san'at turi xalq dostonlari, og'zaki ijod namunalari, tarixiy qahramonlar hamda hayotiy voqealardan oziqlanib, milliy obrazlarni sahna san'ati vositalari orqali jonlantiradi. Ayniqsa, opera janrida milliy obrazlarning musiqiy dramaturgiya, bastakorlik uslubi, sahna talqini va dekorativ san'at vositalari orqali ifodalanishi Qoraqalpog'iston madaniyatining betakror xususiyatlarini ochib beradi.

Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati jihatdan olib qaralsa Milliy obrazlarning opera san'atidagi talqini - bu nafaqat estetik hodisa, balki xalqning madaniy merosi va tarixiy ongini asrab-avaylashda muhim omildir. Bugungi globallashuv jarayonida milliylik va universallik uyg'unligini saqlab qolish, yosh avlodda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Shu bois Qoraqalpog'iston opera san'atidagi milliy obrazlar tahlili musiqashunoslik, san'atshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari uchun nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu mavzuni tadqiq etish orqali milliy musiqa san'atining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, bastakorlar ijodidagi milliy an'ana va zamonaviylik uyg'unligini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi.

Qoraqalpog'iston opera san'ati XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab professional yo'nalishda shakllanib, asta-sekin milliy musiqa madaniyatining muhim sohasi sifatida rivojlana boshladi. Avvaliga musiqali drama, xalq qo'shiqlari, folklor an'analari va og'zaki ijod namunalari asosida yaratilgan sahna asarlari kelajakdagi milliy opera uchun mustahkam poydevor vazifasini o'tadi. Shu davrda xalq dostonlari, afsonalari, tarixiy voqealari va qahramonlik motivlari opera

dramaturgiyasining asosiy manbai bo'lib xizmat qildi. Aynan shu folklor merosi bastakorlar uchun cheksiz ilhom manbai bo'lib, ular milliy kuy va ohanglardan foydalanish orqali xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy olami va milliy ruhini opera obrazlarida badiiy va musiqiy vositalar bilan yuksak darajada aks ettirishga erishdilar. Natijada Qoraqalpog'iston opera san'ati o'ziga xos milliy qiyofa kasb etib, jahon opera an'analarining tajribasini o'zlashtirgan holda, o'z milliyligini saqlab qolgan holda rivojlanish bosqichiga ko'tarildi.

Qoraqalpog'iston opera san'ati XX asrning ikkinchi yarmida mustaqil professional yo'nalish sifatida shakllanib, o'ziga xos taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Birinchi bosqichda, ya'ni dastlabki yillarda, milliy sahna san'atida opera janri bevosita xalq og'zaki ijodi va musiqali drama asosida rivojlana boshladi. Bu davrda xalq dostonlari, afsonalari va tarixiy voqealar opera syujetining manbai bo'lib, milliy obrazlarning shakllanishida asosiy o'rin tutdi. Folklor merosi asosida yaratilgan ilk tajribalar opera san'atining milliy qiyofasini belgilab berdi.

Ikkinchi bosqich - professional opera asarlarini yaratish davri bo'lib, bunda bastakorlar milliy kuy va ohanglarni zamonaviy musiqiy dramaturgiya bilan uyg'unlashtira boshladilar. Bu jarayonda xalq musiqasi intonatsiyalari orkestrlashtirilib, professional kompozitsiya talablariga moslashtirildi. Natijada milliy obrazlar yanada jonli va badiiy mukammallik kasb etdi.

Uchinchi bosqichda, ya'ni keyingi yillarda, Qoraqalpog'iston opera san'ati o'zining shakllangan an'analariga ega bo'lib, milliy va jahon musiqiy madaniyatining ilg'or tajribalarini o'zlashtira oldi. Repertuar doirasining kengayishi, milliy qahramonlar timsolining yangi talqinlarda sahnaga olib chiqilishi va sahna texnologiyalarining rivojlanishi bu bosqichning asosiy belgilaridan bo'ldi. Shu jarayonda opera san'ati milliylik va universallik uyg'unligida rivojlanib, xalqning tarixiy xotirasini, milliy g'oyalarini va ma'naviy qadriyatlarini ifodalashga xizmat qildi.

Milliy obraz – bu xalqning tarixiy tajribasi, urf-odati, turmush tarzi, ma'naviy qadriyatlari, dunyoqarashi va ruhiyatini badiiy va estetik vositalar orqali ifodalovchi timsol yoki qiyofadir. U millatning o'ziga xosligi, madaniy merosi va mentalitetini o'zida mujassamlashtiradi. Adabiyot, musiqa, teatr va tasviriy san'atda milliy obraz xalqning o'zligini anglash, uni boshqa xalqlardan ajratib turuvchi belgilarni ifodalash vositasi hisoblanadi.

Qoraqalpoq opera san'atida milliy obrazlar talqinini yoritishda Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida sahnalashtirilgan operalarga alohida to'xtalish lozim. Mazkur teatrdan yaratilgan asarlar o'zining tarixiy mazmuni va milliylik ruhining kuchliligi bilan boshqa opera teatrlaridan ajralib turadi.

Masalan, N.Muhammetdinovning “Ajiniyoz” operasi milliy qahramon - shoir va ma’rifatparvar Ajiniyoz obrazini sahna orqali jonlantiradi. Ushbu asarda xalqning ozodlikka intilishi, ma’rifatparvarlik g’oyalari va milliy qadriyatlari musiqiy dramaturgiya yordamida ifodalangan bo’lib, qahramonning ruhiy olami milliy kuy va intonatsiyalar asosida ochib beriladi.

Shuningdek, teatr repertuaridagi “Qirq qiz”, “Qoblan”, “Sharyar”, “Edige” kabi asarlar ham xalq dostonlari asosida yaratilgani sababli ularda milliy obrazlarning timsollari yorqin aks etgan. Bu operalarda xalq qahramonlari va ularning vatanparvarlik, jasorat, sadoqat kabi fazilatlari musiqiy dramaturgiya va sahna talqini orqali ko’rsatilib, milliy ongini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Demak, Qoraqalpoq opera san’atida yaratilgan milliy obrazlar nafaqat musiqiy-badiiy ahamiyatga ega, balki ular tarixiy xotirani tiklash, milliy o’zlikni anglash va yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashning muhim omili sifatida namoyon bo’ladi. Shu jihati bilan Qoraqalpog’iston opera sahnasi o’z milliyligi, tarixiyligi va badiiy ifoda uslubi bilan jahon opera madaniyatidagi boshqa tajribalardan farqlanadi.

1970-yillar Qoraqalpog’iston opera san’ati tarixida alohida o’rin tutadi. Aynan shu davrda dastlabki milliy opera asari - “Ajiniyoz” operasi librettosi ustida samarali izlanishlar olib borildi. Bu jarayon Qoraqalpoq professional musiqiy teatr san’atining mustaqil yo’nalish sifatida shakllanishida katta qadam bo’ldi. “Ajiniyoz” operasi milliy adabiyot va musiqaning uzviy uyg’unligiga asoslangan bo’lib, unda xalq shoiri va ma’rifatparvar Ajiniyoz obrazini sahna orqali musiqiy talqin qilish maqsad qilingan.

Biroq o’sha davrda opera san’ati uchun eng dolzarb muammolardan biri - kadrlar masalasi edi. Kompozitorlar, libretto mualliflari, xonandalar va orkestra ijrochilari yetishmasligi bu jarayonni ancha qiyinlashtirdi. Shunga qaramay, Qoraqalpoq ijodkorlari o’zining fidokorona mehnati, folklor manbalariga murojaat qilishi va milliy qadriyatlarga sodiqligi tufayli dastlabki opera tajribalarini amalga oshirishga muvaffaq bo’ldilar.

Bu izlanishlar keyingi yillarda yaratilgan boshqa operalar uchun ham mustahkam zamin yaratdi. Aynan “Ajiniyoz” operasi atrofida olib borilgan badiiy va tashkiliy ishlar Qoraqalpog’iston opera sahnasining kelajakdagi rivoji uchun poydevor vazifasini o’tadi.

Pirimbiy va Berdi obrazlarining qarama-qarshiligida ota-bobolarimizning haqiqiy hayotiy voqealari sahnalashtirilganligini ko’rishimiz mumkin. Ayborekga qilingan zulmlar, oddiy xalq ustidan yovuzlarcha hukmronlik qilish manzaralari milliy opera dramaturgiyasida o’ziga xos dramatik kuch kasb etadi. Bu sahnalar orqali asarda zulm va adolat, ezgulik va yovuzlikning abadiy kurashi ifodalanadi.

Ayborek timsolida xalqning sabr-toqati, sadoqati va erkka bo'lgan intilishi gavdalandirilsa, Berdi Ingliz va uning atrofidagi kuchlar xalqni ezuvchi, manfaatparast va zolim qatlamning ramzi sifatida tasvirlanadi.

Natijada, opera sahnasida faqat tarixiy voqealar emas, balki xalq ruhiyatidagi kurash, milliy o'zlikni saqlash va ozodlikka intilish g'oyalari ham jonli musiqiy obrazlar orqali ifodalangan bo'ladi. Bu qarama-qarshiliklar tomoshabinda nafaqat badiiy zavq uyg'otadi, balki ma'naviy saboq, milliy qadriyatlarga hurmat va tarixiy xotirani anglash tuyg'usini ham mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan "Uchinchi Renessans" g'oyasi mamlakatimizda ta'lim, ilm-fan va san'atni tubdan rivojlantirishga qaratilgan strategik yo'nalish sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur konsepsiyada yosh avlodni yuksak bilim va ma'naviyat asosida tarbiyalash, milliy madaniyatni jahon miqyosida tanitish, san'at va ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Ana shu yondashuv asosida 2021-yil 5-aprel kuni Vazirlar Mahkamasining 186-sonli qarori bilan O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali tashkil etildi va 2021/2022-o'quv yilidan boshlab faoliyatini yo'lga qo'ydi. Filialning ochilishi Qoraqalpog'iston Respublikasida musiqiy madaniyatni yangi bosqichga olib chiqdi, professional ijodiy kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratdi. Ayniqsa, akademik vokal san'ati yo'nalishining joriy etilishi o'zining dolzarbligi bilan alohida e'tiborga loyiq bo'lib, bu yerda bel canto maktabi, rus vokal an'analari va milliy ashula ohanglari sintezi asosida yosh xonandalar tayyorlanmoqda. Bu yo'nalishning rivoji orqali milliy ovoz madaniyati yuksalib, opera va kamera qo'shiq repertuarlari boyimoqda, yosh iste'dodlarning xalqaro miqyosga chiqishi uchun sharoit yaratilmoqda. Nukus filialida yaratilgan zamonaviy infratuzilma, xor va ansambl jamoalarining faoliyati, talabalarning ijodiy laboratoriya sifatida tajriba orttirishi san'atimizda yangi bosqichni boshlab berdi. Shu tariqa, Nukus filialining tashkil etilishi nafaqat mintaqaviy, balki respublika miqyosida ham katta madaniy voqea bo'lib, Prezidentimiz ta'kidlagan Uchinchi Renessans g'oyasining amaliy ifodasi sifatida milliy ijodiy merosni ilmiy asosda o'rganish, uni jahon madaniy jarayoniga qo'shish hamda kelajak avlodni yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Qoraqalpog'iston opera san'ati milliy madaniyatning eng yuksak qatlamlaridan biri sifatida xalqimizning tarixiy xotirasi, ma'naviy olami va milliy o'zligining yorqin ifodachisiga aylandi. Uning shakllanishida xalq dostonlari, og'zaki ijod namunalariidan tortib zamonaviy bastakorlik uslublariigacha bo'lgan manbalar muhim o'rin tutdi. "Ajiniyoz", "Qirq qiz", "Qoblan", "Sharyar", "Edige" kabi asarlar orqali milliy obrazlar timsolida

xalqimizning ozodlik, jasorat va ma'naviy poklik g'oyalari sahna vositalari bilan badiiy talqin etildi. Pirimbiy, Berdi va Ayborek obrazlaridagi dramatik qarama-qarshiliklar milliy ruh, xalqning kurashchanlik xarakteri va tarixiy saboqlarini tomoshabinga yetkazdi. Shu tariqa, opera janri Qoraqalpog'iston san'atida nafaqat estetik hodisa, balki ma'naviy-ma'rifiy maktab sifatida shakllandi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Uchinchi Renessans" g'oyasi asosida 2021-yilda tashkil etilgan O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali ushbu jarayonning mantiqiy davomi bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, akademik vokal san'ati yo'nalishining joriy etilishi milliy ovoz madaniyatini yuksaltirish, yosh xonandalarni jahon sahnasiga olib chiqish va milliy san'atimizni xalqaro miqyosda tanitish yo'lida katta imkoniyatlar ochib berdi. Shu bois Qoraqalpog'iston opera san'ati va Nukus filialidagi yangi yo'nalishlar uyg'unligi bugungi davr san'atining rivojida, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ularni dunyo madaniy jarayoniga qo'shishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 186-son qarori. "O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filialini tashkil etish to'g'risida". – Toshkent: VMQ, 2021.
3. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri tarixi (maqolalar va materiallar to'plami). – Nukus: Qoraqalpog'iston, 2015.
4. Muhammetdinov N. "Ajiniyoz" operasi librettosi ham izlanislar. – Nukus: Qoraqalpaqstan, 1972.
5. Qayıpbergenov T. Qoraqalpaq muzıkalıq teatr óneriniń tariyxı. – Nukus: Bilim, 1998.
6. Madraimov B. Milliy musiqiy meros ham zamonaviy kompozitorlik. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
7. Xodjaniyazova D. Qoraqalpaq xalq dostonlari ham ularning opera san'atidagi talqini // San'atshunoslik ilmiy jurnal. – Nukus, 2020. – №3. – B. 45–57.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Султанова Е. ФОРТЕПИАННОЕ ТРИО ФРАНСИСА ПУЛЕНКА В КОНТЕКСТЕ ФРАНЦУЗСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ XX ВЕКА	3
2	Миркасымова Э.З. ИСПОЛНИТЕЛЬСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАК ВАЖНЕЙШИЙ ЭТАП ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЫКАНТА	9
3	Мирсолихова Х.М. МУСИҚИЙ АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИ ҲАҚИДА	16
4	Тожибоев С. ИСЛОМ ДИНИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМ ВА БАЙРАМЛАРДАҒИ МУСИҚИЙ АНЪАНАЛАР	21
5	Abatbaeva R.A. KOMPOZITORLAR IJODIDA BALLADA JANRINING SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	34

KÓRKEM ÓNER

6	Allanbaev R.O. “SUYMAGANGA SUYKALMA” MUSIQALI DRAMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	41
7	Аббарова М. ЎЗБЕКИСТОН ВА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АЁЛ КОМПОЗИТОРЛАРИНИНГ ТАҒАҚҚУРИ МОҲИЯТИ	52
8	Aytmuratov B.K. AKTYOR INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ROL YARATISH USLUBIYATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	59
9	Azimov K. DIRIJYORLIK TEXNIKASINING NAZARIY MASALALARI	68
10	Eminov N. “ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASIGA AYRIM CHIZGILAR	73
11	Gulmanov I. DÁSTÚRIY HÁM ZAMANAGÓY MUZÍKADA DÁP ÁSBABÍNÍN RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	80
12	Jaqsımuratova B. VOKAL ATQARIW SHÍLÍGÍNÍN TARIYXIY EVOLYUCIYASÍ	86
13	Karimova N. FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNIG ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	92
14	Kazakbayeva M. ARIYALAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA JO‘RNAVOZNING AHAMIYATI	98
15	Kutekeeva R. QORAQALPOG‘ISTON OPERA SAN‘ATIDA MILLIY OBRAZLAR TALQINI	104

16	Matjanova M. ATQARIWSHILIQ MADENIYATIDA KONCERTMEYSTERDIN TIYKARGI WAZIYPALARI	110
17	Sharipov N. ZAMONAVIY FANDA AYOL OLIMALARNING O'RNI	117
18	Osman Kopadze. THE SOFT POWER IMPACT OF TURKISH TELEVISION SERIES ON UZBEK SOCIETY	122
19	Paxratdinova L. SKRIPKANING KELIB CHIQISHI VA IJROCHILIK AN'ANALARI	130
20	Shukurov A. TEATR SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUV	136
21	Tursunov E. AN'ANAVIY YO'NALISHDAGI XONANDALIK ASARLARI BOSHQA MILLAT VAKILLARI IJROCHILIGIDA	147
22	Измаилов А.М. ФОРМИРОВАНИЕ ОРКЕСТРОВОЙ ФУНКЦИИ ЗВУКОВЫСОТНЫХ УДАРНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В XVI–XVII ВЕКАХ	153
23	Давыдова Т. СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМФОНИЧЕСКИХ ОПУСОВ ТУЛКУНА КУРБАНОВА	165
24	Миркасымова Э.З. ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И СТИЛЕВЫЕ ПРИНЦИПЫ ФОРТЕПИАННЫХ ЦИКЛОВ Д.САЙДАМИНОВОЙ.	170
25	Charshemov J.A. QARAQALPAQ KOMPOZITORLARININ XOR USHIN JAZILGAN SHIGARMALARI	177

MUZIKA PEDAGOGIKASI

26	Djumaniyazov U.M. XALQ MUSIQA IJODIYOTINI O'RGANISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV	187
27	Yusupaliyeva D. YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI	196
28	Muratbaev A. ORFF METODI TIYKARIDA MUZIKA SABAQLARIDA SAZ ASBAPLARDAN PAYDALANIV	204
29	Мелькумова Э.И. ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ: СТРУКТУРА, ЛОГИКА И ТРАНСФОРМАЦИЯ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОСТИ	210
30	Абдуллаева А. РАБОТА НАД ФОРТЕПИАННЫМИ ПЬЕСАМИ Р. ГЛИЭРА В КЛАССЕ ОБЩЕГО ФОРТЕПИАНО	217

31	Saidumarov I. ESTRADA XONANDALIGI SAN'ATI HAMDA VOKALDAN DARS BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	223
----	--	-----

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

32	Бердиниязова Н.К. МЕҲНАТ ЖАМОАСИДА КАСАБА УЮШМАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	228
33	Пердебаева К.Р. БАСПАСӨЗ ДИЗАЙНЫ ҮСТИНДЕ ИСЛЕЎ (Газетаның арнаўлы санлары анализи мысалында)	234

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal

